

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003858>

RIZOIY ASARINING NOMLANISHI XUSUSIDA

Shafolat Hasanova

filologiya fanlari doktori,
O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyi
e mail: shafolat80@mail.ru

Bahriddin Umurzoqov

filologiya fanlari doktori, prof. v.b.
Yangi asr universiteti

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotshunosligida «Mantiq ut-tayr» turidagi dostonlarni o‘rganish Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonini tadqiq qilish masalasi bilan bog‘liq bo‘lib, har doim mutaxassislarning diqqat markazida turgan. “Mantiq ut-tayr” mavzusida turkiy tilda qalam tebratgan ijodkorlardan yana biri Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy (XVIII asr) bo‘lib, u yaratgan «Qush tili» dostonining hozircha yagona deb hisoblanib keluvchi qo‘lyozmasi 127-inventar raqami ostida Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanib kelmoqda.

Rizoiyning «Qush tili» dostonining yaratilishida «Mantiq ut-tayr» turkumidagi dostonlar va ularning paydo bo‘lishida Sanoiy, Ibn Sino, Shahobiddin Suhravardiy, Ahmad G‘azzoliy kabilarning asarlari bevosita ilk manba vazifasini o‘tagan bo‘lsa, Islom dini tarixi, Qur‘oni karim va hadisi shariflar asarning o‘ziga xosligi, syujet va kompozitsion tuzilishining betakrorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Rizoiy Payvandiy, «Qush tili», Qur‘oni Karim, hadisi sharif, doston, iqtibos, mazmun, shakl.

Аннотация. Изучение произведений типа «Мантик ут-тайр» в узбекской литературе связано с изучением произведения Алишера Навои «Лисон ут-тайр» и всегда находилось в центре внимания специалистов. Мавлоно Ходжа Кази Пайванди Ризои (XVIII в. Н. Э.) - один из авторов, писавших на тюркском языке на тему «Мантик ут-тайр». Единственная рукопись созданного им произведения «Язык птиц» хранится в фонде Государственного музея литературы имени Алишера Навои под инвентарным номером 127.

В создании эпоса Ризаи «Язык птиц» непосредственную роль сыграли эпосы цикла «Мантик ут-тайр» и произведения Санай, Ибн Сины, Шахобиддина Сухраварди, Ахмада Газали, в том числе история Ислама, Священный Коран и хадисы, послужили важным фактором в обеспечении неповторимости сюжета и композиционного строя.

Опорные слова и выражения: Ризои Пайванди, «Язык птиц», Священный Коран, хадис, эпос, цитата, содержание, форма

Abstract. In Uzbek literature, the study of epics of the type "Mantiq ut-tayr" is associated with the study of Alisher Navoi's epic "Lison ut-tayr" and has always been in the spotlight of experts. Mavloni Khoja Qozi Payvandii Rizoi (XVIII asp) was one of the authors who wrote in Turkish on the theme of "Mantiq ut-tayr". The only manuscript of the epic "Language of the Bird's" created by him is kept in the fund of the State Museum of Literature named after Alisher Navoi under inventory number 127.

The epics of the Mantik ut-tayr cycle and the works of Sanai, Ibn Sina, Shakhobiddin Suhrawardi, Ahmad Ghazali played a direct role in the creation of the Rizai epic "Language of the Bird's", while the history of Islam, the Holy Quran and the hadiths served as an important factor in ensuring the uniqueness plot and composition.

Keywords and expressions: Rizoi Payvandii, "Language of the Bird's", Holy Quran, hadith, epic, quote, content, form.

Kirish. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining nodir qo‘lyozma va toshbosma kitoblar xazinasida XVIII asrda yashagan xorazmlik ijodkor Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiyning «Qush tili» asari qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Rizoiyning bu asari turkiy tildagi allegorik-falsafiy dostonchilikning Gulshahriy va Alisher Navoiy boshlab bergan an‘analarining keyingi davrlarda ham samarali davom ettirilganligidan dalolat beradi. Bu asar o‘zbek adabiyoti tarixida qushlar obrazlari orqali muhim ijtimoiy-falsafiy va irfoniy qarashlarini o‘zida aks ettirib, unda salaflarning tajribasi ijodiy rivojlantirilganligi va badiiy ijodning yangi namunalari bayon etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Metodlar. Maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

Erishilgan natijalar. Ushbu asar muallifi va uning yozilishi tarixi va nomi haqida dostonning xotima qismida ma’lumotlar keltiriladi.

Kitob xotimasida asarning yaratilishi tarixiga oid ma’lumotlar berilib, garchi Rizoiy uni tarjima asar deb atasa ham, lekin tadqiqotlar bu asarni o‘ziga xos syujet va kompozitsiyasi, obrazlar silsilasiga va o‘z g‘oyaviy-falsafiy mazmuni, badiiy-poetik uslubi Rizoiygagina xos asar deyishga to‘la asos beradi. Chunki bu doston boshqalarnikidan tamomila farq qiladi. Rizoiy mavzuni yoritishda o‘ziga xos yo‘l tutib, uni majoziy talqin usuli orqali bayon qiladi. U so‘fiyona-falsafiy masalalarni qushlar obrazlari orqali yoritib beradi. Xususan, u bu to‘g‘rida shunday deydi:

Ey Rizoiy, ne Sulaymonsен bu kun,
Kim qilursen qush tili birla suhun.
Qush tilin hech kimsa bilmas sen kabi,
Ulki bilsa sharh qilmas sen kabi.
Qush tilining tarjimonidur so‘zung,
Go‘yiyo holo Sulaymonsен o‘zung.
Ulki bilgay qush tilin be shaku rayb,
Gar Sulaymonman, desa o‘zin na ayb.
Qush tilidin tarjimondur bu kitob,

Ko'rguzur Anqo sori rohu savob.
Kimga kim Simurg'a qush yanglig' borur,
Hudhudi hodiy kabi yo'l boshqarur.

Rizoiy «Mantiq ut-tayr» misolidagi asarlarni sinchiklab o'rgangan. Fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan shu mavzudagi dostonlarni, xususan, Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asari bilan, garchi asarda u eslatilmasa ham, yaqindan tanish bo'lganligi shubhasizdir. Shoirning bu asari o'ziga xos originalligini uning quyidagi misralaridan ham bilib olsa bo'ladi:

Chashmayedur munda har bir durr harf,
Kim nihondur onda bir daryoyi tarf.
Nechakim ul chashmani axtarsalar,
Andin ul daryo suyi ko'proq chiqar.
Garchi o'z so'zin kishi o'zi demas,
So'z o'ze derman demak hojat emas...

Munda har birdurki ijloiy erur,
Barchasi man bandaning moli erur.
Yo'q manga tarse' uchun andog'ki toj,
O'zganing la'lu duriga ehtiyoj.
Bahr tojitaq manga o'z oltunum,
Basdururkim yohtudur andin kunum.

Rizoiy dostonni yaratishdan asosiy maqsad qilib g'ayb shahodati yo'lida kamolot bosqichlarini zabt etish va vasli Haqqa erishishni kashf etishni qushlar obrazlari orqali ochib berishni qo'yadi. U qushlar timsolida inson obrazini tasavvur qilmoq kerakligini quyidagicha tavsiflaydi:

Ul kishikim kelturur iymon ba g'ayb,
Bu anga hodiy erur beshaku rayb.
Gar muning irshodig'a qilsang amal,

Bo'lg'ay ul g'aybi shahodatg'a badal.
Kim bu so'zga rost qilsa bu yo'lin,
Ul kishi beshak topibdur Haq yo'lin.
Var bu so'zdin qilsa mayl liy xurof,
Bor sulukida aning shaksiz xilof.
Bu sarosar barcha solik holidur,
Mubtado vu muntaho ahvalidur.
Bilgay ulkim aqldin behush emas,
Kim g'araz munda kishidur qush emas.
Ul suxandon bu hikoyatni bilur,
Kim base ramzu kinoyatni bilur.

Rizoiy dostonining nomlanishi haqida ham kitobning xotima qismida bir necha joylarida so'z yuritadi. Ularda «Qush tili» nomi Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asariga nisbatan bir o'rinda «Qush tili»din tarjimondur bu kitob» deb «Qush tili» nomini qo'llagan. O'z asarining nomini ham Rizoiy uch o'rinda «Qush tili» deb ataydi. Birida asarning yaratilishi va manbalardan foydalanganligi haqida gapirib shunday yozadi:

Garchi bu so'z xoli az da'vo emas,
Necha da'vo bo'lsa be ma'no emas.
Ulki bu "Qush tili"ni o'qib bilur,
Anda bu so'z chinligin bovar qilur.
Harfi harfayn ko'rsa andog'kim qalam,
El so'zidin munda ko'rmas bir raqam.

Ikkinchi joyda Rizoiy qushlar tilidan bayon qilingan bu doston soliklar yo'lidan iborat ekanligini gapirib, yana bir bor asarning nomini ta'kidlab o'tadi:

Zohiro afsonag'a o'xshar so'zi,
Ma'nida bordur haqiqatg'a yuzi.
Sar basar ahli haqiqat so'zidur,
Ulki haq so'zini so'zlar o'zidur.

Va uchinchi shoir Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini turkiy tilda bayon etib, unga javob sifatida kitobning yozilish tarixi qismida o‘z asari «Qush tili»ni yaratganligini qayd etadi. Bu tarixdan Rizoyning dostoni abjad hisobi bilan chiqarilganda 1171 hijriy, ya’ni 1756-1757 milodiy yilda yozilganligi ma’lum bo‘ladi:

Chun qush tilidin kinoyat erdi bu kitob,
Turkiy bila bo‘ldi “Mantiq ut-tayr” xitob.
Tarixini jon bulbulidin so‘rdum esa,
Qush tili bila navo chekib, qildi javob.

Xulosa. Mana shu yuqorida dostonning keltirilgan parchalariga asoslanib, biz Rizoyning bu asarini «Qush tili» deb nomlashni ma’qul ko‘rdik.

Qolaversa, Rizoyning bu dostonining tili ham shunday xulosaga kelishga asos bo‘la oladi. Chunki shoir, boshqa shu davrda yaratilgan asarlardan farqli o‘laroq, asarda iloji boricha arabiy va forsiy so‘zlardan yiroqlashib, ularning turkiy muqobillarini ishlatishga harakat qilgan va asarning nisbatan bo‘lsa ham, tushunarli va ravon tilda yozilishiga erishgan. Shu bois ham, shoir o‘z dostonining nomlanishini o‘zbek tilida berishni xohlagan bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. –Тошкент: 2009. – 380 б.
2. Абдулазиз Мансур. “Қуръони карим” маъноларининг таржимаси. -Т., 2001. -289-б.
3. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти урфоний. –Техрон: 1303. -814б.
4. Шарипов Ш.У. Алишер Навои. «Лисон ут-тайр» дostonининг генезиси ва ғоявий-бадий хусусиятлари. Тошкент, 1982.
5. Khasanova, S. (2016). “KUŞ DİLİ” MEVZUSUNDA YAZILAN YENİ BİR ESER. Electronic Turkish Studies, 11(15).